



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti




№4(1)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 128 sahifa,  
2-aprel, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Yangi O'zbekistonning mintaqaviy va global geosiyosiy pozitsiyasi: milliy o'zlik va media reprezentatsiya tahlili .....	16
<b>Salim Doniyorov</b>	
Axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o'quvchilarning adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirish .....	21
<b>Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich, Xoldarova Gulchehra Tajibayevna</b>	
Adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirishda elektron darsliklar va multimedia vositalaridan foydalanish.....	26
<b>Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich</b>	
Ta'limdagi hurfikrlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	29
<b>Yunusov Dilshod Raxmatovich</b>	
Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	32
<b>Aliqulova Habiba Bahranovna</b>	
Ayollar boksida jismoniy tayyorgarlikning yosh qizlar salomatligiga ta'siri .....	36
<b>Majidov Ruslan Rustam o'g'li, Komilova Ismigul O'ktamjon qizi</b>	
Talaba-yoshlarda internet risklarning oldini olishning pedagogik modeli .....	41
<b>Muradova Maftuna Komilovna, Mamadaliyeva Umida Isroiljonovna</b>	
Диагностика креативности студентов педагогических вузов в процессе изучения специальных дисциплин.....	44
<b>Уразова Марина Батыровна, Соибова Толифа Дилмуродовна</b>	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning metodik xususiyatlari.....	49
<b>Tashibekova Munajat Xoshimovna</b>	
Mariya Montessori ta'limida bolalarning mustaqilligini va ijodiy faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-didaktik shart-sharoitlari.....	53
<b>Asqarova Ma'mura Sadriddinovna</b>	
O'spirinlik yoshida namoyon bo'ladigan agressiv xulqning psixologik xususiyati .....	59
<b>Atajanova Xurjon Pirnazar qizi</b>	
O'zbekiston jurnalistikasining rivojlanishida jadidlarning o'rni: jurnalistikada yangi trend .....	64
<b>Murtozayeva Nigora Murtoza qizi</b>	
Virtual ta'lim texnologiyasining ta'lim jarayonini takomillashtirishdagi ahamiyati.....	67
<b>Muxsiyeva Aziza Shamsitdinovna</b>	
Kelajakdagi o'qituvchilarning pedagogik kreativligini ta'limiy o'yinlar orqali rivojlantirish yo'llari .....	69
<b>N. A. Musayeva</b>	
Talabalarda lisoniy tafakkurni shakllantirishga psixolingvistik yondashuvning didaktik tamoyillari .....	76
<b>Odiljonova Kamola Abduvosit qizi</b>	
Strategies for Overcoming Difficulties in Using Authentic Materials in English Language Teaching .....	81
<b>Qosimov Jaloliddin Abduvali o'g'li</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari .....	84
<b>Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna</b>	
Inspektor-psixologlarda ijtimoiy-psixologik kompetentlikning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati .....	87
<b>Raxmanova Dilnoza Farmanovna</b>	
Qo'ng'iro't tumani toponimlarining leksik-semantik va genetik xususiyatlari .....	90
<b>Shamshaddinova Saodat Saparbayevna</b>	
Variativ yondashuv asosida 5–9-sinf o'quvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishning didaktik modeli va metodik ta'minoti .....	93
<b>Shamuratov Asqar Abdullayevich</b>	



The Structural Composition and Developmental Stages of Critical Thinking Skills.....	98
<i>Shuxratjon Ismoiljonov Boymirza o'g'li</i>	
Yosh rahbar kadrlarni lavozimlarga tayinlashning psixologik xususiyatlari.....	106
<i>Sobitov Otabek</i>	
O'zbekistonda erta turmush qurish masalasi va uning psixologik tahlillari.....	111
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Adaptiv sportning inklyuziv ta'lim tizimida alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarning jismaniy va funksional rivojlanishidagi ahamiyati.....	114
<i>Xasanova Sarvinoz To'liqinjon qizi</i>	
Yosh futbolchilarda texnik mahoratni rivojlantirishda differentsiallashgan mashg'ulotlar modelini qo'llash samaradorligi .....	118
<i>Zayniddinov Tojiddin Baxriddinovich</i>	
Фразеологизмы как носители культуры: проблемы перевода и методы обучения .....	123
<i>Хамидова Гулноза Турсунбой кизи</i>	

# BOSHLANG'ICH TA'LIMDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Aliqulova Habiba Bahranovna

Navoiy davlat universiteti Psixologiya kafedrasida o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Boshlang'ich ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik asoslari, metod va vositalari tahlil qilinadi. Dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish hamda xulosa chiqarish kompetensiyalarini rivojlantirish yo'llari yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** kompetensiyaviy yondashuv, tanqidiy fikrlash, boshlang'ich ta'lim, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, o'quv kompetensiyalari, mustaqil fikrlash.

**Abstract:** The pedagogical foundations, methods, and tools for developing critical thinking skills in primary school students based on a competency-based approach are analyzed. The study also highlights ways to enhance students' independent thinking, analytical abilities, and conclusion-making skills through the use of interactive teaching methods in the learning process.

**Key words:** competency-based approach, critical thinking, primary education, pedagogical technologies, interactive methods, learning competencies, independent thinking.

**Аннотация:** Проанализированы педагогические основы, методы и средства формирования навыков критического мышления у учащихся начального образования на основе компетентного подхода. Также освещены пути развития у учащихся умений самостоятельного мышления, анализа и формирования выводов посредством использования интерактивных методов в учебном процессе.

**Ключевые слова:** компетентный подход, критическое мышление, начальное образование, педагогические технологии, интерактивные методы, учебные компетенции, самостоятельное мышление.

## KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri – o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida bu jarayon alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan shu davrda bolalarning fikrlash faoliyati, dunyoqarashi va bilish jarayonlari shakllanadi. Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish o'quvchilarning nafaqat bilim olishini, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish ushbu yondashuvning markaziy elementlaridan biri hisoblanadi. Chunki tanqidiy fikrlash orqali o'quvchi axborotni passiv qabul qiluvchi emas, balki uni tahlil qiluvchi, baholovchi va mustaqil xulosa chiqaruvchi subyektga aylanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish o'ziga xos psixologik xususiyatlarga ega. Bu yoshdagi bolalarda tafakkur ko'proq konkret-obrazli xarakterga ega bo'lib, ular abstrakt tushunchalarni asta-sekin o'zlashtiradi. Shu sababli o'qituvchi tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda ko'rgazmalilik, hayotiy misollar va sodda muammoli vaziyatlardan foydalanishi lozim. Masalan, oddiy kundalik holatlar asosida savollar berish orqali o'quvchilarni fikrlashga undash samarali natija beradi.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilarning faol ishtiroki ta'minlanadi. Bunda o'qituvchi yo'naltiruvchi, tashkil etuvchi rolni bajaradi. O'quvchilar esa bilimni mustaqil izlash, tahlil



qilish va umumlashtirish jarayonida faol qatnashadi. Ayniqsa, ochiq savollar (ya'ni yagona to'g'ri javobga ega bo'lmagan savollar) o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi. Masalan, "Nima uchun?", "Qanday qilib?", "Agar shunday bo'lsa, nima bo'ladi?" kabi savollar tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish masalasi pedagogika fanida yetarlicha o'rganilgan. Xususan, Tolipov O. va Usmonboyeva M. pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish mumkinligini asoslab beradi. Ularning fikricha, zamonaviy ta'limda o'quvchi faolligini oshirish, interfaol metodlardan foydalanish va kompetensiyalarni shakllantirish o'zaro uzviy bog'liq jarayon hisoblanadi. Ziyomhammedov B. ham pedagogika asoslarini tahlil qilib, ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Hasanboyev J. esa pedagogika nazariyasida kompetensiyaviy yondashuvni shaxs rivoji bilan bog'lab, uning amaliy ahamiyatini ochib beradi.

Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ham tanqidiy fikrlash masalasi chuqur o'rganilgan. Bloom B. tomonidan ishlab chiqilgan ta'lim maqsadlari taksonomiyasi o'quvchilarning bilish faoliyatini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi, bunda tahlil, sintez va baholash kabi yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalari alohida o'rin tutadi. Dewey J. 1910-yilda e'lon qilingan "How We Think" asarida fikrlash jarayonining muammoli vaziyatlar bilan bog'liqligini asoslab beradi va o'quvchilarda refleksiv tafakkurni shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi. Vygotsky L.S. esa tafakkur va nutq o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy asoslab, o'quvchilarning bilish jarayonlari ijtimoiy muhit ta'sirida rivojlanishini ko'rsatadi.

Shuningdek, Paul R. va Elder L. tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha amaliy yondashuvlarni ishlab chiqib, o'quvchilarni mustaqil tahlil qilish, dalillarni baholash va asoslangan xulosalar chiqarishga o'rgatish zarurligini ko'rsatadi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalariga oid ilmiy maqolalar to'plamlarida esa interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion yondashuvlar orqali o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali usullari yoritilgan. Ushbu ilmiy qarashlar boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish va o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishning nazariy asoslarini tashkil etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi mazkur ishda boshlang'ich ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishni o'rganishga qaratildi. Tadqiqot davomida ma'lumotlar pedagogik kuzatuv, suhbat, so'rovnoma hamda tajriba-sinov ishlari orqali yig'ildi. Xususan, o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligi, savollarga munosabati va muammoli vaziyatlarni hal etishdagi yondashuvlari muntazam ravishda kuzatildi. So'rovnomalarda orqali o'quvchilarning fikrlash darajasi va interfaol metodlarga bo'lgan munosabati aniqlandi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil, tavsifiy tahlil hamda statistik usullar yordamida qayta ishlanib, natijalar umumlashtirildi. Shuningdek, tajriba va nazorat guruhlarini ko'rsatkichlari solishtirilib, qo'llanilgan metodlarning samaradorligi baholandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tanqidiy fikrlashni shakllantirishda interfaol metodlar alohida o'rin tutadi. "Aqliy hujum" metodida o'quvchilar berilgan muammo yuzasidan imkon qadar ko'proq g'oya ilgari suradi. Bu jarayonda tanqid qilinmaslik muhiti yaratilishi muhim, chunki bu o'quvchilarning erkin fikr bildirishiga yordam beradi. Keyingi bosqichda esa ilgari surilgan g'oyalar tahlil qilinib, eng maqbullari tanlab olinadi. Bu esa o'quvchilarda baholash va tanlash ko'nikmalarini shakllantiradi. "Klaster" metodidan foydalanish orqali o'quvchilar mavzu bo'yicha tushunchalarni tizimlashtirishni o'rganadi. Masalan, "Tabiat" mavzusini o'rganishda o'quvchilar asosiy tushunchani markazga joylashtirib, unga bog'liq bo'lgan kichik tushunchalarni tarmoqlar shaklida yozib chiqadi. Bu jarayon o'quvchilarning mantiqiy bog'lanishlarni aniqlash va umumlashtirish qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, "INSERT" texnologiyasi o'quvchilarning matn bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Ushbu metod orqali o'quvchilar o'qish jarayonida o'z bilimlarini faollashtiradi, yangi ma'lumotlarni ajratadi va tushunmagan joylarini belgilaydi. Bu esa ularni mustaqil o'rganishga va o'z fikrini tahlil qilishga o'rgatadi.

Muammoli ta'lim texnologiyasi ham tanqidiy fikrlashni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. O'qituvchi dars jarayonida muammoli vaziyat yaratadi va o'quvchilarni ushbu muammoni hal etishga yo'naltiradi. Masalan, "Agar daraxtlar bo'lmasa, hayot qanday bo'lardi?" kabi savollar o'quvchilarni chuqur fikrlashga undaydi. Bunday vaziyatlarda o'quvchilar o'z fikrlarini asoslashga, dalillar keltirishga harakat qiladi. Bundan tashqari, rolli o'yinlar va kichik guruhlarda ishlash metodlari ham tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Guruhli ishlarda o'quvchilar o'zaro fikr almashadi, bahs-munozara qiladi va turli nuqtai nazarlarni solishtiradi. Bu esa

ularning kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Tanqidiy fikrlashni shakllantirish jarayonida baholash tizimi ham muhim rol o'ynaydi.

An'anaviy baholashdan farqli ravishda, kompetensiyaviy yondashuvda formatif (jarayonli) baholash ustuvor hisoblanadi. Bunda o'quvchining faqat natijasi emas, balki uning fikrlash jarayoni, dalillash qobiliyati va ishtiroki ham baholanadi. Shuningdek, boshlang'ich ta'limda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Multimedia vositalari, interaktiv taqdimotlar va ta'limiy o'yinlar o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va ularni faol fikrlashga undaydi. Masalan, turli vizual materiallar asosida savollar berish orqali o'quvchilarning kuzatuvchanligi va tahlil qilish qobiliyati rivojlanadi.

Kompetensiyaviy yondashuv – bu o'quvchining bilim, ko'nikma va malakalarini real hayotda qo'llay olish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan ta'lim modelidir. Ushbu yondashuvda o'quvchi markaziy o'rinni egallaydi va u faol subyekt sifatida ishtirok etadi. Boshlang'ich ta'limda quyidagi kompetensiyalarni shakllantirish muhim:

- axborot bilan ishlash kompetensiyasi;
- kommunikativ kompetensiya;
- ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi;
- shaxsiy o'zini rivojlantirish kompetensiyasi.

Bu kompetensiyalar tanqidiy fikrlash bilan uzviy bog'liqdir. Tanqidiy fikrlash – bu axborotni tahlil qilish, solishtirish, baholash va asoslangan xulosalar chiqarish jarayonidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bu ko'nikma quyidagilar orqali namoyon bo'ladi:

- savollar berish;
- muammolarni aniqlash;
- turli fikrlarni solishtirish;
- dalillar asosida xulosa chiqarish.

Tanqidiy fikrlash o'quvchilarda mustaqillik, ijodkorlik va mantiqiy tafakkurni rivojlantiradi. Boshlang'ich ta'limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun quyidagi metodlardan samarali foydalanish mumkin:

1. **“Aqliy hujum” (Brainstorming).** O'quvchilar erkin fikr bildiradi, muammo yuzasidan turli g'oyalar ilgari suradi. Bu usul ularning fikrlash doirasini kengaytiradi.
2. **“Klaster” metodi.** Mavzu bo'yicha tushunchalar tizimlashtiriladi. O'quvchilar asosiy va ikkinchi darajali fikrlarni ajratishni o'rganadi.
3. **“INSERT” texnologiyasi.** Matn bilan ishlash jarayonida o'quvchilar o'z fikrlarini belgilab boradi (bilaman, yangi ma'lumot, tushunarsiz, qiziqarli).
4. **“Savol-javob” metodi.** O'quvchilarni mustaqil savol tuzishga o'rgatish orqali ularning fikrlash faolligi oshiriladi.
5. **Muammoli vaziyatlar yaratish.** O'qituvchi darsda muammoli holatlarni yuzaga keltirib, o'quvchilarni mustaqil yechim topishga yo'naltiradi.

Tanqidiy fikrlashni samarali shakllantirish uchun quyidagi shartlar zarur:

- o'quvchi markazli ta'lim muhitini yaratish;
- erkin fikr bildirish imkonini berish;
- bahs-munozaralarga keng o'rin ajratish;
- interfaol metodlardan muntazam foydalanish;
- o'quvchilarni rag'batlantirish.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish zamonaviy ta'limning muhim talablaridan biridir. Bu jarayonda interfaol metodlardan samarali foydalanish, o'quvchilarni faol ishtirokchi sifatida jalb etish hamda muammoli vaziyatlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida tanqidiy fikrlashni shakllantirish murakkab,



ammo zarur pedagogik jarayon hisoblanadi. Bu jarayon o'qituvchidan yuqori pedagogik mahorat, innovatsion yondashuv va metodik tayyorgarlikni talab etadi. To'g'ri tashkil etilgan ta'lim jarayoni orqali o'quvchilarda mustaqil, erkin va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini samarali rivojlantirish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'limga oid qarorlari.
2. Davlat ta'lim standartlari. – Toshkent, 2023.
3. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent.
4. Bloom B. Taxonomy of Educational Objectives.
5. Paul R., Elder L. Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning.
6. Vygotsky L.S. Thought and Language.
7. Dewey J. How We Think.
8. Ziyomammedov B. Pedagogika asoslari.
9. Hasanboyev J. Pedagogika nazariyasi.
10. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari bo'yicha ilmiy maqolalar to'plami.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №4(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.